

# NIMA UCHUN BIZ INGLIZ TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'RGANISHIMIZ KERAK?

Nishonova Farzona Hayotjon qizi,

2224-guruh talabasi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

[nishonoyafarzona2003@gmail.com](mailto:nishonoyafarzona2003@gmail.com)

Ilmiy rahbar: Mamataliyeva Xulkaroy

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda zarur bo'lgan tavsiyalar va ularning tasnifi, tinglab tushunish, muloqot qilish ko'nikmalarini o'zlashtirishda tavsiyalar va biznes aloqalari hamda xalqaro iqtisodiyot, ta'lim, sayohat, xalqaro huquq normalarida ingliz tilini o'rganishning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** smartfon, texnologiya, xalqaro biznes, diplomatik aloqalar, tezkor internet, tinglash, so'zlashish, grammatika, lug'at, ko'nikmalar.

Dunyo turli xalqlar va millatlarga boyligi bilan birga ko'plab tillar va lahjalarga ham egadir. Deyarli har bir milatning o'z tili mavjud. Ammo bugungi kundagi globallashuv jarayonida ingliz tiliga bo'lgan e'tibor oshmoqda. Ingliz tili a'zolarini jipslashtiradi va fikr almashish, ko'plab ma'lumotlar egasi bo'lish uchun ko'mak beradi. Ingliz tilini o'rganish uchun sabab qidirishda Studio Cambridge jurnalida keltirilgan quyidagi jumla yaqqol misol bo'la oladi. “Dunyo bo'ylab taxminan 1.75 milliard odam ingliz tilida so'zlashadi va bu har to'rttdan bir kishidir. Ingliz tilida so'zlasha olish bu faqat ingliz tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish emas. Agar siz boshqa mamlakatdan kelgan odam bilan gaplashmoqchi bo'lsangiz, buni amalga oshirish uchun ikkalangiz ham ingliz tilida gaplashishingiz mumkin”.<sup>1</sup> Demak, dunyo chet tillarining orasida ingliz tili birinchi o'rinda turadi va allaqachon xalqaro

---

<sup>1</sup> <https://www.studiocambridge.co.uk/why-it-is-important-to-learn-english/>

miqyosda o'zib ketgan hisoblanadi.

Har qanday insonda o'z kelajagining rivoji uchun o'ylagan orzu va niyatlari mavjud desam yanglishmayman. Ammo bugungi kunning zamonaviy yoshlarida bu fikrning aksini ko'ramiz. Ular chet tiliga shunchaki ommalashgani yoki do'sti va tengqurlari o'rganyotgani bois qiziqishadi. Aslida esa ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganish jarayonida ham qat'iy maqsad bo'lishi zarur. Misol uchun siz chiroyli ko'rinishga ega bo'lish, ma'nan yetuk va jismonan sog'lom bo'lish kabi maqsadlarda sport bilan shug'ullanasiz. Shuningdek, ingliz tilini o'rganishda ham aniq maqsad bo'lishi zarur.

Biror chet tilini ikkinchi til sifatida o'rganish davomida bir qancha yo'nalishga murojaat qilish mumkin. Misol uchun doimiy takrorlash. Chunki til asosini takrorlash tashkil etadi. Biz kuniga 20 ta yoki 30talab yangi so'z o'rganishimiz mumkin. Lekin bu so'zlarni takrorlamasak xotiramizning arxividan joy olishi aniq.

So'zlarni doimiy takrorlash uchun esa kichik qog'oz parchasiga yangi lug'atlarni yozib, ko'zimiz ko'p tushadigan joylarga yopishtirib qo'yish kerak.<sup>2</sup>

Yana bir samarali usullardan biri bu - tinglash. Ingliz tilini tez o'rganishni va inglizcha talaffuzni tushunish uchun eng yaxshi yo'l. Siz eshitayotgan kundalik qo'shiqlarni ingliz tilida tinglashga harakat qiling. Bu usul so'zlarni talaffuzni o'rganishda va qulog'ingiz notanish so'zlarga moslashishida asqotadi. Qo'shiqni tinglash davomida uning ma'nosiga tushunishga harakat qilasiz. Bu esa diqqatingizni jamlashingizga, miya faoliyatingizga birdek ko'mak beradi.

O'rganish usullaridan yana biri bu - shu tilda muloqot qilishdir. Ko'pchilik til o'rganuvchilar o'rganyotgan tilining grammatikasini chuqur o'zlashtirmasdan turib, tezroq shu tilda gaplashishni istab qoladi. Buesa hech qachon o'z - o'zidan bo'lmaydi. Bu jarayonda ingliz tilida so'zlarni qayerda va qanday ishlatishni bilish zarur.

Siz smartfoningiz orqali o'zingiz bilan o'zingiz muloqot qilsangiz ham bo'ladi.

---

<https://kun.uz/uz/news/2020/03/08/ingliz-tilini-togri-organish-boyicha-12ta-konikma>

Bugungi texnologik zamonda bu juda oson. Ovoz yozish orqali nutqingizdagi xatolar va kamchiliklarni tuzatishingiz mumkin. Agar sizning inglizzabon do'stingiz yoki tanishingiz bo'lsa, bu undanda yaxshi imkoniyat. Ingliz tilida yaxshi gapirishni o'rganishni hayotingizni mo'jizaviy tarzda o'zgartirib yuborishi mumkin.

Ingliz tili cheksiz imkoniyatlar kalito demakdir. Bu chet tili har yerda mavjud. Misol uchun xalqaro biznesni rivojlantirishda, diplomatik aloqalarni kuchaytirishda, sayohat, fan, tezkor internet, shuningdek ta'lim sohasida ham. Bugungi kunda diplomatik aloqalrni rivojlantirish, xalqaro huquq, xalqaro iqtisodiyotni muhofaza qilishda ham ingliz tilining o'rni beqiyos. XXI asrning dolzarb masalalari - atrof-muhitni himoya qilish, urush va tinchlik masalalarida ham ingliz tilida bahs va munozara qilinadi, keng foydalaniladi.

Ilmsiz xalqning kelajagi bo'lmasligi bois, ta'lim sohasiga ham alohida e'tabor berish lozim. Ingliz tilini bilgan holatda siz chet elning istalgan universitetlarida o'qishingiz shu bilan bir qatorda xalqaro diplomga ega bo'lishingiz mumkin. Chunki ingliz tilida sakkiz milliard aholi muloqat qilgani, o'n ikkita davlatning rasmiy ona tili sifatida e'tirof etilgani sababli butun dunyo sizga minglab maktab va universitetlarni taklif qiladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. <http://uzbekimmigrant.com/2018/03/17/ingliz-tilini-tez-organish-uchun-besh-maslahat/>
2. [https://kun.uz/uz/news/2020/03/08/ingliz-tilini-to\\_gri-organish-boyicha-12ta-konikma](https://kun.uz/uz/news/2020/03/08/ingliz-tilini-to_gri-organish-boyicha-12ta-konikma)
3. <https://www.studiocambridge.co.uk/why-it-is-important-to-learn-english/>
4. <https://uzinfobiz.ru/ingliz-tili.html>
5. Тошбоева, Барно. "Особенности обучения произношению на английском языке в начальных классах средней школы." (2018).
6. Тошбоева, Б. "Проблемы употребления профессионализмов." (2018).